



THE BEGINNING OF THE MEIJI PERIOD AND THE FALL OF THE
TOKUGAWA SHOGUNATE

Rustam Mamajonov

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tokugawa Shogunate, Meiji Period, Feudalism, Treaty of Kanagawa, Isolation, Feudal Territories (藩hans), "Sonno Joi" (尊王攘夷-Respect the Emperor and Banish the West), Shogunate, Sakoku (鎖国-Closed State), Iwakura Mission

Received: 02.10.24

Accepted: 04.10.24

Published: 06.10.24

Abstract: The reasons for the beginning of the Meiji period and the fall of the Tokugawa shogunate, as well as the impact of this process on the Japanese political system, are covered. After the Meiji Restoration began, the new government embarked on a radical reform of Japan. State centralization was strengthened, all hans were abolished and the prefecture system was introduced instead. The hereditary privileges of the samurai were abolished, and a law was passed to force the people into military service. The main goal of the Meiji era was to transform Japan into a modern country. As a result of economic, political and cultural reforms, Japan became one of the most developed countries in the world.

MEYDZI DAVRINING BOSHLANISHI VA TOKUGAWA SHOGUNATINING
QULASHI

Rustam Mamajonov

Tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tokugawa shogunati, Meydzi davri, feodal tuzum, Kanagawa shartnomasi, izolyatsiya, feodal hududlar (藩hanlar), "Sonno Joi" (尊王攘夷-imperatori hurmat qil va G'arbni quvib chiqar), shogunlik, Sakoku (鎖国-yopiq

Annotatsiya: Meydzi davrining boshlanishi va Tokugawa shogunatining qulashi sabablari, shuningdek, bu jarayonning Yaponiyaning siyosiy tizimiga ta'siri yoritiladi. Meydzi restavratsiyasi boshlanganidan so'ng, yangi hukumat Yaponiyani tubdan isloh qilishga kirishdi.

davlat), Iwakura missiyasi

Davlat markazlashuvi kuchaytirilib, barcha hanlar bekor qilindi va oʻrniga prefekturalar tizimi joriy etildi. Samuraylarning merosiy imtiyozlari tugatilib, xalqni harbiy xizmatga majbur qilish toʻgʻrisida qonun qabul qilindi. Meydzi davrining asosiy maqsadi Yaponiyani zamonaviy davlatga aylantirish edi. Oʻtkazilgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy islohotlar natijasida Yaponiya dunyoning eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylandi.

НАЧАЛО ПЕРИОДА МЭЙДЗИ И ПАДЕНИЕ СЁГУНАТА ТОКУГАВА

Рустам Мамаджонов

Исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Сёгунат Токугава, Период Мэйдзи, Феодализм, Канагавский договор, Изоляция, Феодалные территории (藩 ханы), «Сонно Дзэй» (尊王攘夷—Уважать императора и изгнать Запад), Сёгунат, Сакоку (鎖国—Закрытое государство), Миссия Ивакура

Аннотация: Освещены причины начала периода Мэйдзи и падения сёгуната Токугава, а также влияние этого процесса на политическую систему Японии. После начала Реставрации Мэйдзи новое правительство приступило к радикальной реформе Японии. Была усилена государственная централизация, все ханы были упразднены и вместо них была введена система префектур. Наследственные привилегии самураев были отменены и принят закон о принуждении народа к военной службе. Основной целью эпохи Мэйдзи было превращение Японии в современную страну. В результате экономических, политических и культурных реформ Япония стала одной из самых развитых стран мира.

KIRISH

Meydzi davrining boshlanishi Yaponiyaning butun tarixidagi eng muhim burilish bosqichlaridan biri boʻlib, davlatning tubdan oʻzgarishi va modernizatsiyaga yoʻl ochilishiga sabab boʻldi. Ushbu jarayon Tokugava shogunatining qulashi bilan bogʻliq boʻlib, bu qulash davlatning asrlar davomida oʻrnatilgan siyosiy va ijtimoiy tuzumini yoʻq qilishga olib keldi. Tokugava shogunatining zaiflashuvi, ichki nizolar va tashqi tahdidlar Yaponiyani yangi davrga, yaʼni Meydzi restavratsiyasiga olib keldi. Ushbu maqolada Meydzi davrining boshlanishi va Tokugava shogunatining qulashi sabablari, shuningdek, bu jarayonning Yaponiyaning siyosiy tizimiga taʼsiri yoritiladi.

ASOSIY QISM

Tokugava shogunati 1603-yilda Tokugava Ieasu tomonidan tashkil etilgan bo'lib, taxminan 250 yil davomida Yaponiyani boshqargan markaziy hukumat tizimi edi. Bu davrda mamlakat nisbatan tinch va barqaror bo'lib, siyosiy hokimiyat shogunlar qo'lida to'plandi, samuraylar esa ijtimoiy elita sifatida davlat boshqaruvida muhim rol o'ynashda davom etdi. Biroq, shogunat qattiq markazlashtirilgan siyosiy tizimga asoslangan bo'lib, bu tizim vaqt o'tishi bilan zaiflashdi va davlat ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini yo'qota boshladi.

XVII asrdan boshlab, Tokugava shogunati mamlakatni deyarli to'liq izolyatsiyaga olgan edi. Bu izolyatsiya siyosati(Sakoku) Yaponiya bilan chet davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni cheklab, davlatning tashqi dunyo bilan deyarli aloqasiz qolishiga olib keldi. Natijada, Yaponiyada ichki feodal tartiblar mustahkamlanib, milliy rivojlanish sekinlashdi. Bu orada G'arb davlatlari sanoat inqilobidan keyin kuchayib, yangi bozorlar va resurslarni izlashga kirishdi. Yaponiyaning izolyatsiyasi esa uni xalqaro miqyosda zaif va himoyasiz holga keltirdi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, G'arb davlatlari, xususan AQSh va Yevropa davlatlari Yaponiyaga ochiq bozorlar va diplomatik aloqalar o'rnatishni talab qila boshladi. 1853 yilda AQSh dengiz qo'mondoni Metyu Perri Yaponiyaning Edoga (hozirgi Tokio) kemalari bilan kelib, shogunlikdan savdo va diplomatik munosabatlar o'rnatishni talab qildi. Bu hodisa Yaponiyani tashqi dunyo bilan munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. 1854-yilda imzolangan Kanagawa shartnomasi Yaponiya izolyatsiyasining tugatilishini va G'arb davlatlariga savdo portlarini ochishni nazarda tutdi. Bu shartnoma va undan keyingi kelishuvlar Tokugava shogunati nufuzining zaiflashishiga sabab bo'ldi.

Shogunatning bu qadamlaridan norozilik ichki qarshiliklarni kuchaytirdi. Xalq va ayrim feodal hududlar (hanlar) o'z madaniy qadriyatlarini va an'alarini yo'qotishdan qo'rqib, shogunlikka qarshi bosh ko'tardilar. Ayniqsa, Satsuma va Choshu kabi kuchli hanlar shogunatga qarshi ochiq isyon ko'tarib, kuchli qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishdi. Ular imperatorni yana davlat boshqaruvining markaziy ramzi sifatida tiklashni talab qildilar. Bu jarayon "Sonno Joi" shiori ostida bo'lib o'tdi, ya'ni "imperatorni hurmat qil va G'arbn quvib chiqar" degan talab bilan shogunatga qarshi harakatlar boshlandi.

1867-yilda Tokugava Yoshinobu, o'sha paytdagi shogun, davlatning boshqaruvini imperator Meydziga topshirib, iste'fo berdi. Bu voqea "Meydzi restavratsiyasi" nomi bilan tarixda qoldi. Biroq, shogunatning tarafdorlari hali ham kuchga ega edi va ular 1868-1869-yillardagi fuqarolar urushi(Boshin urushi)da imperator kuchlariga qarshi jang qildilar. Bu urush Tokugava tomonining mag'lubiyati bilan yakunlandi va shundan so'ng shogunlik butunlay tugatildi.

Meydzi restavratsiyasi boshlanganidan so'ng, yangi hukumat Yaponiyani tubdan isloh qilishga kirishdi. Avvalo 1868-yil 6-aprelda "5moddalik qasam" ishlab chiqildi va rivojlanish bosqichining asoslari ko'rsatib berildi. Buning mazmuni quyidagidan iborat:

1. O'zaro majlis chaqirib, har bir masalani hal qilish kengashib hal qilish.
2. Har bir kishi mavqeyidan qat'iy nazar, astoydil har bir masalada ishtirok etish.
3. Amaldorlardan tortib to harbiy va oddiy aholi ham o'z orzulariga yetishi yo'lida noroziliklarning bo'lmasligining ahamiyatliligi
4. Eski yomon odatlardan voz kechib, umumiy qonun-qoidalarga asoslangan holda harakat qilish.
5. Dunyo tajribasini o'rganib, mamlakatni taraqqiy ettirish.

1869-yilda poytaxt Kiotodan Edo shahriga o'zgartirilib, Edo shahri Tokyo deb qayta nomlandi. 1871-yilda davlat markazlashuvi kuchaytirilib, barcha hanlar bekor qilindi va o'rniga prefekturalar tizimi joriy etildi. Samuraylarning merosiy imtiyozlari tugatilib, xalqni harbiy xizmatga majbur qilish to'g'risida qonun qabul qilindi.

Meydzi davrining asosiy maqsadi Yaponiyani zamonaviy davlatga aylantirish edi. Bu islohotlar davlat boshqaruvida, harbiy tizimda va iqtisodiy rivojlanishda katta o'zgarishlar olib keldi. Hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimiga bo'lindi (Sankenbunritsusei) va 1885-yilda Vazirlar Mahkamasi (Naikaku seido) joriy etildi. 1871-yilning dekabr oyidan to 1873-yilning sentabr oyigacha G'arb tajribasini o'rganish uchun Iwakura missiyasi tashkil etildi. Aynan Iwakura missiyasi Meydzi islohotlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bundan tashqari xorijdan mutaxassislar jalb qilinib ishlab chiqarish texnologiyalari, harbiy soha va ta'lim tizimi bo'yicha o'z maslahatlarini berdilar va Yaponiyaning modernizatsiyasiga o'z hissalarini qo'shdilar. Harbiy sohani isloh qilish uchun 1873-yilda joriy etilgan majburiy harbiy xizmat qonuni Yaponiya erkaklariga (20yoshdan oshgan) uch yillik xizmatni majburiy qilib qo'ydi. Bundan tashqari harbiy xizmatdan keyin 4yil davomida zahiraga olinib, urush holatlarida armiyaga chaqirilishni majburiy qildi. Bu qonun G'arb davlatlarining milliy armiyalaridan ilhomlangan bo'lib, yangi zamonaviy harbiy tizimni joriy qildi. Shuningdek, Yaponiya hukumati o'zining yangi armiyasini modernizatsiya qilish maqsadida G'arb davlatlaridan harbiy maslahatchilarni jalb qildi, ular orasida Germaniya va Frantsiya mutaxassislari yetakchi o'rinda turar edi. Mamlakatda quruqlik va dengiz qo'shinlari tashkil qilindi. Bu islohotlar bilan parallel tarzda hokimiyat o'z chegaralarini mustahkamlash choralarini ham ko'rdi. 1879-yilda Ryukyu orollarini qo'shib oldi va Okinawa prefekturasiga tarkibiga o'tkazildi. Shimoliy chegaralar Rossiya imperiyasi bilan bevosita kelishuvlar asosida hal etildi. 1870-1871-yilgi Fransuz-Prussiya urushida betaraf qolib, birinchi marta Yevropa davlatlarinig siyosiy ishlarida ishtirok

etishni boshladi. Yangi armiya Yaponiya xalqaro sahnaga chiqishida katta rol o'ynadi. 1894-1895 yillardagi Xitoy-Yaponiya urushi va 1904-1905 yillardagi Rossiya-Yaponiya urushi bu armiya kuchining real namoyishi bo'ldi. Ushbu urushlardagi g'alabalar Yaponiya xalqaro maydonda qudratli davlat sifatida tanilishiga sabab bo'ldi va uning mintaqaviy yetakchilik pozitsiyalarini mustahkamladi.

1868-yilda boshqaruvni o'z qo'liga olgan yangi hukumat ta'limni davlatning markaziy vazifalaridan biriga aylantirdi. Dastlab 1871-yilda Monbusho(Ta'lim,fan va madaniyat vazirligi) tashkil qilindi. 1872-yilda qabul qilingan "Ta'lim buyrug'i" (Gakusei) islohoti orqali ta'lim tizimi tubdan o'zgartirildi. Ushbu islohotlar Yaponiyada birinchi marta majburiy boshlang'ich ta'lim tizimini joriy etdi va har bir bola 6 yoshidan 14 yoshgacha ta'lim olish huquqiga ega bo'ldi. Meydzi davrida ayollar ta'limiga ham katta e'tibor berildi va 1872-yilda Tokyoda dastlabki ayollar maktabi tashkil topdi. Endi ayollar ham erkaklar bilan teng ravishda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar. Yaponiya ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatgan omillardan biri G'arbiy davlatlarning tajribasi edi. Meydzi davri boshida Yaponiya hukumati ko'plab yapon talabalari va mutaxassislarini G'arb davlatlariga, xususan, AQSh va Yevropaga yubordi. Bu talabalarning vazifasi G'arbning ilg'or texnologiyalari va bilimlarini o'rganish, shuningdek, ularni Yaponiyaga olib kelish edi. G'arbiy ilm-fan va texnologiyalarni o'zlashtirish maqsadida ko'plab xorijiy o'qituvchilar Yaponiyaga taklif etildi. Shu maqsadda 1877-yilda Tokio Universiteti tashkil qilinib,fanlarning rivojlanishiga asos solindi.

Hukumat mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko'tarish uchun kerakli chora tadbirlarni ko'rdi. 1874-yilda mamlakatda o'z zamonasining ilg'or yetakchilari tomonidan sanoatni rivojlantirish bo'yicha bir necha dolzarb masalalar kun tartibiga qo'yildi. Mamlakatning sanoatlashuvi uchun asosiy asos moddiy va moliyaviy zaxiralarning markaziy hokimiyat nazorati asosida birlashtirish bo'ldi. Avvallari harbiy hokimiyat yoki mahalliy hokimiyatga tegishli bo'lgan korxonalar va konlar markaziy hukumat nazorati ostiga o'tkazildi. Bu siyosat natijasida 11ta zavod va 9ta konlar Meydzi hukumati nazorati ostiga o'tkazildi. 1870-yilda sanoatni rivojlantirish uchun Sanoat Vazirligi tashkil etildi. Bungacha sanoat masalalari bilan moliya vazirligi shug'ullanar edi. 1873-yilda Ichki Ishlar vazirligi tashkil etildi va bu vazirlikning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi va parrandachilikni rivojlantirish etib belgilandi. Bundan tashqari transport tizimini rivojlantirish uchun mamlakatda temiryo'l va dengiz transportini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. 1872-yilda Tokyodan Yokohamani bog'lovchi temir yo'l liniyasi qurib bitkazildi. Angliyadan keltirilgan xom ashyo evaziga temiryo'llar qurildi. 70-yillardagi temiryo'llarning umumiy uzunligi 120kmni tashkil qildi. Bundan tashqari aloqa va pochta tizimi ham tartibga solindi. 1871-yilda mamlakatda pochta tizimi ishga tushirilib,yagona

pochta to'lovi tizimi ishga tushirildi. 1877-yilda birinchi marta mamlakatda aloqa tizimi o'rnatildi. Yapon hukumati mamlakatni hamma sohalarda zamonaviy qilish va oddiy aholi orasida Yevropa turmush tarzi va Yevropa g'oyalarini urf olishiga harakat qildi.

Bu harakat yapon ziyolilari orasida ijobiy qabul qilindi. Tokio, Yokohama, Osaka va Kobe shaharlari madaniyat markaziga aylandi. G'arbdagi liberalizm va invididualizm g'oyalari keng tarqaldi. 1870-yildagi farmonga asoslanib Imperator ilohiylashtirildi va Imperatorning tug'ilgan kuni va Yaponiya davlati tashkil topgan kuni davlatning milliy bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

XULOSA

Tokugava shogunatining qulashi va Meydzi davrining boshlanishi Yaponiya tarixida yangi zamonaviylashtirish jarayonining boshlanishi edi. Bu o'zgarishlar Yaponiya jamiyatini feodalizm asoratlaridan qutqarib, uni G'arb davlatlari bilan raqobatlashishga qodir bo'lgan kuchli davlatga aylantirdi. 1890-yilga kelib Yaponiya Osiyodagi birinchi bo'lib o'z konstitutsiyasiga ega bo'lgan davlatga aylandi. Yangi davr Yaponiya uchun ichki barqarorlik va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlarni olib keldi, bu esa uni Osiyoda yetakchi davlatga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Irokawa, D. (1985). The culture of the Meiji period. Princeton University Press.
2. Hirschmeier, J. (1964). The origins of entrepreneurship in Meiji Japan. Harvard University Press.
3. Matsuura, S. , & Fujii, M. (1993). A study on the administration of river works at the beginning of Meiji era. HISTORICAL STUDIES IN CIVIL ENGINEERING, 13, 145-160.
4. Jansen, M. B. (Ed.). (1995). The Emergence of Meiji Japan. Cambridge University Press.
5. Shively, D. H. (1971). The Japanization of the middle Meiji. Tradition and modernization in Japanese culture, 77-119.
6. Nagai, M. (1971). Westernization and Japanization: the early Meiji transformation of education. Tradition and modernization in Japanese culture, 35-76.
7. Dickinson, F. R. (2018). Japan and the Modern World: Lessons from Meiji. Japan Review, 2(2), 45-52.
8. Segal, E. (2015). Meiji and Taishō Japan: An Introductory Essay. Becoming Modern: Early 20th-Century Japan through Primary Sources. ed. Colorado Boulder University. Colorado: University of Colorado Boulder.
9. 中野正剛『明治民権史論』有倫堂、1913年。
10. 久保田哲『帝国議会』中央公論新社〈中公新書〉、2018年6月25日。